



DIGITAL IDENTIFICATION CRISIS AND SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF CYBERAGGRESSION AMONG MINORS

Sherzodjon Nabiyeu

Researcher, Namangan State University
Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: digital identification, identification crisis, cyberaggression, virtual personality, minors, digital socialization, virtual communication, anonymity phenomenon, information space, social-philosophical analysis.

Received: 24.01.26

Accepted: 25.01.26

Published: 26.01.26

Abstract: This article examines, from a social-philosophical perspective, the deepening of the identification crisis among minors in the digital environment, emerging as a new stage of globalization, and the complex dialectical relationship of this process with the phenomenon of cyberaggression. In a context where digital technologies directly influence self-awareness, the formation of social roles, and the construction of communication experiences, the increasing disparity between the “virtual self” and the “real self,” the transformation of self-affirmation mechanisms, and the rise of aggressive forms of communication in minors’ consciousness are assessed as factors that pose a serious threat to the moral and ethical stability of society.

RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA INQIROZI VA VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDAGI KIBERAGRESSIYANING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

Sherzodjon Nabiyeu

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Raqamli identifikatsiya, identifikatsiya inqirozi, kiberagressiya, virtual shaxs, voyaga yetmaganlar, raqamli ijtimoiylashuv, virtual kommunikatsiya, anonimlik fenomeni, axborot makoni, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

Annotatsiy: Ushbu maqola globallashuvning yangi bosqichi sifatida shakllanayotgan raqamli muhitda voyaga yetmaganlarning identifikatsiya inqirozining chuqurlashuvi hamda mazkur jarayonning kiberagressiya fenomeni bilan murakkab dialektik aloqada rivojlanishini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Raqamli

texnologiyalar shaxsning o'zini anglashi, ijtimoiy rolini shakllantirishi va muloqot tajribasini konstruksiyalash jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan bir sharoitda, voyaga yetmaganlar ongida "virtual men" va "real men" o'rtasidagi nomutanosiblikning kuchayishi, o'zini tasdiqlash mexanizmlarining transformatsiyasi hamda agressiv kommunikatsiya shakllarining ortishi jamiyatning axloqiy-ma'naviy barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirayotgan omillar sifatida baholanadi.

КРИЗИС ЦИФРОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КИБЕРАГРЕССИИ СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Шерзоджон Набиев

Исследователь

Наманганский государственный университет

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: цифровая идентификация, кризис идентификации, киберагрессия, виртуальная личность, несовершеннолетние, цифровая социализация, виртуальная коммуникация, феномен анонимности, информационное пространство, социально-философский анализ.	Аннотация: Данная статья с социально-философской точки зрения анализирует углубление кризиса идентификации несовершеннолетних в цифровой среде, формирующейся как новый этап глобализации, а также сложную диалектическую взаимосвязь этого процесса с феноменом киберагрессии. В условиях, когда цифровые технологии напрямую влияют на процессы самопознания личности, формирование социальной роли и конструкцию коммуникативного опыта, усиливающаяся несоразмерность между «виртуальным я» и «реальным я», трансформация механизмов самоподтверждения и рост форм агрессивной коммуникации в сознании несовершеннолетних рассматриваются как факторы, серьезно угрожающие морально-нравственной устойчивости общества.
---	---

Kirish. Raqamli transformatsiya jarayonlari insoniyat taraqqiyotining so'nggi o'n yilliklarida nafaqat iqtisodiy, siyosiy va madaniy makonlarning strukturasini yangidan shakllantirdi, balki shaxsning o'zini anglash mexanizmlari, ijtimoiy munosabatlar tizimi va kommunikativ praktikalarning butun ontologik asoslarini tubdan o'zgartirdi. Ayniqsa, raqamli ijtimoiylashuv bosqichida voyaga yetmaganlar ongida yuzaga kelayotgan identifikatsiya

jarayonlari murakkab psixologik-diskursiv transformatsiyalar bilan bog'liq bo'lib, ularning virtual makondagi o'zaro munosabatlarida aks etadigan kiberagressiya fenomeni zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun jiddiy ijtimoiy-falsafiy muammoga aylanib bormoqda. Chunki raqamli muhit, avvalo, shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasini konstruksiyalovchi asosiy platformaga aylangan va bu jarayon real ijtimoiy maydon bilan ko'p qatlamli dialektik ziddiyatlar tizimini yuzaga keltirmoqda. Raqamli identifikatsiya inqirozi, mohiyatan, voyaga yetmaganlarning ongida "virtual men" va "real men" o'rtasida paydo bo'ladigan nomutanosiblikdan kelib chiqadi. Mazkur ziddiyatga ko'ra, shaxsning virtual makonda yaratgan obrazi real hayotdagi o'zlik tajribasidan keskin farq qiladi va aksariyat hollarda bunday tafovut o'z-o'zini baholashning beqarorlashuvi, psixologik disbalans, ijtimoiy moslashish jarayonlarida tarqoqlik va kommunikativ uzilishlarga sabab bo'ladi[1]. Virtual platformalarda, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda, voyaga yetmaganlarning o'zini namoyon qilishiga doir cheksiz imkoniyatlar mavjudligi, ularning identifikatsiya jarayonlarini tashqi tasdiqlash (like, reyting, baho) mexanizmlariga qattiq bog'lab qo'yadi. Natijada, shaxs o'zining qadriyat tizimini mustaqil shakllantirish o'rniga, algoritmik boshqaruv va ommaviy raqamli me'yorlar orqali belgilangan standartlarga moslashishga urinadi. Mazkur jarayonning eng muhim oqibatlaridan biri kiberagressiyaning o'sishidir. Chunki virtual identifikatsiya inqirozi shaxsning psixologik barqarorligiga zarar yetkazgan holda, unda o'zini tasdiqlashning radikal shakllarini yuzaga keltiradi. Kiberagressiya, mohiyatan, boshqalarga nisbatan virtual makon orqali amalga oshiriladigan zararli xatti-harakatlar majmuasini anglatadi va bunda anonimlik, masofaviylik va jazodan qochish imkoniyati ushbu xulqning kuchayishiga sabab bo'ladi[2]. Voyaga yetmaganlar orasida kiberagressiya nafaqat ijtimoiy-psixologik muammo, balki chuqur ontologik ildizlarga ega bo'lgan hodisa sifatida o'rganilishi zarur. Chunki ularning ongida yuzaga keladigan identifikatsiya inqirozi nafaqat individual psixologik jarayon, balki zamonaviy jamiyatning raqamli strukturasida yashiringan axborot oqimlari, ommaviy madaniyat bosimi, algoritmik boshqaruv, virtual muloqotning simulyativ tabiatiga bog'liq bo'lgan ko'p qatlamli fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar kundalik hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan bir sharoitda, voyaga yetmaganlarning ongida shakllanayotgan identifikatsiya modeli jamiyatning ilgari mavjud bo'lgan an'anaviy ijtimoiy institutlari — oila, maktab, mahalla, o'zaro muloqot madaniyati kabi sohalarining funksiyalarini zaiflashtirib, virtual muhitni asosiy normativ-huquqiy, axloqiy va kommunikativ maydonga aylantirmoqda[3]. Bu esa o'z navbatida, shaxsning o'z-o'zini anglash jarayonida real ijtimoiy xulq me'yorlaridan uzilish, real hayotga oid vazifalar va mas'uliyatdan chekinish, boshqalar bilan muloqotda empatiya, bag'rikenglik, ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlarning zaiflashuviga olib keladi. Raqamli

identifikatsiya inqirozi ayniqsa voyaga yetmaganlar uchun xavfli bo'lishining asosiy sababi — ularning psixik rivojlanish jarayonida identifikatsiya mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan bo'lishidir. Mazkur bosqichdagi shaxs tashqi ta'sirlarga nihoyatda moyil bo'lib, virtual makondagi stimullar, agressiv kommunikatsiyalar, manipulyativ axborotlar, sun'iy ideal obrazlar orqali o'zining mavjudligini tasdiqlashga urinadi[4]. Natijada, identifikatsiya jarayoni shaxsning o'z qadrini baholash mexanizmiga emas, balki “virtual auditoriya” tomonidan beriladigan tezkor aks-sado tizimiga bog'lanib qoladi. Bu esa kiberagressiyani kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi, chunki o'zini tasdiqlay olmaslikdan kelib chiqadigan psixologik ziddiyat shaxsni virtual zo'ravonlikning turli shakllariga undaydi[5]. Kiberagressiya ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan olganda, shaxsning ijtimoiy mavjudlik holatini simulyatsiya qiluvchi raqamli makonning dialektik tabiatiga bog'liqdir. Raqamli inson, mohiyatan, ikki darajali mavjudlik shakliga ega: biri — real hayotdagi ijtimoiy mavjudlik, ikkinchisi — virtual makondagi mediatizatsiyalashgan mavjudlik. Aynan shu ikki mavjudlik o'rtasidagi uyg'unlikning buzilishi identifikatsiya inqirozining falsafiy ildizini tashkil qiladi. Virtual makonning anonimligi, chegarasizligi va ma'lum darajada jazodan xoli bo'lishi real hayotda amalga oshira olmaydigan agressiv xatti-harakatlarning aynan raqamli kommunikatsiyada kuchayishiga sabab bo'ladi[6]. Bunda shaxs o'zini mas'uliyatdan holi deb biladi, natijada esa kiberagressiya ijtimoiy aloqalarning buzilishiga, voyaga yetmaganlar orasida psixologik zo'ravonlikning kuchayishiga, jamiyatning axloqiy barqarorligiga putur yetkazadigan omilga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, kiberagressiyaning kelib chiqish mexanizmlarini faqat psixologik yondashuvlar bilan izohlash yetarli emas.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli identifikatsiya inqirozi va voyaga yetmaganlar o'rtasidagi kiberagressiya fenomeni bo'yicha xalqaro ilmiy maydonni tahlil qilish ushbu masalaning ko'p qatlamli, murakkab va interdisciplinar xarakterga egaligini ko'rsatadi. Ayniqsa, raqamli makonda identifikatsiyaning shakllanishi, uning psixologik va ijtimoiy oqibatlari hamda kiberagressiyaning kuchayish mexanizmlarini falsafiy va sotsiopsixologik nuqtayi nazardan o'rgangan xorijiy tadqiqotchilar orasida S. Hinduja, J. W. Patchin hamda Sherri Turkle kabi olimlarning ilmiy merosi alohida e'tiborga loyiq. S. Hinduja va J. W. Patchinning Google Scholar bazasida keng tan olingan ilmiy izlanishlari, xususan “Cyberbullying: Identification, Prevention, and Response” kabi ishlari, voyaga yetmaganlar o'rtasida kiberagressiya kuchayishining psixologik motivatsiyalari, raqamli muloqotdagi agressiv diskursning shakllanish omillari va onlayn muhitning ijtimoiy nazoratdan holi segmentlari bilan bog'liq jarayonlarni tizimli yoritadi. Ularning tadqiqotlari kiberagressiyani faqatgina individual xulq o'zgarishi sifatida emas, balki raqamli makonning strukturaviy omillari — anonimlik, algoritmik filtrlash,

tezkor aks-sado tizimi, “ijtimoiy tasdiqlash iqtisodiyoti” bilan uzviy bog‘liq deb talqin qiladi[7]. Mazkur ilmiy yondashuv aynan identifikatsiya inqirozi sharoitida voyaga yetmaganlarning psixologik barqarorligiga putur yetkazuvchi virtual bosimlar kuchayishini, natijada o‘zini tasdiqlashning radikal shakllariga, ya’ni kiberagressiv xatti-harakatlarga moyillik oshishini ko‘rsatib beradi. Hinduja va Patchin raqamli muhitda identifikatsiya jarayoni o‘ziga xos “aks-sado spirali” shaklida kechishini, bunda shaxsning o‘zi haqidagi tasavvurlari tashqi auditoriya reaksiyalari orqali shakllanishini asoslab beradi. Sherri Turkle esa o‘zining mashhur “Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other” nomli ilmiy asarida raqamli identifikatsiya fenomenini sotsiologik va falsafiy yondashuvlar orqali talqin qiladi[8]. Uning fikricha, raqamli makonda voyaga yetmaganlarning identifikatsiya jarayoni real ijtimoiy muloqotning zaiflashishi, shaxsning mavjudlik tajribasining simulyatsiyalashuvi va virtual identitetlarning ko‘p qirrali, fragmentatsiyalashgan tabiatidan kelib chiqadi.

Metodologik qism. Ushbu tadqiqotda raqamli identifikatsiya inqirozi va voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi kiberagressiya fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish maqsadida bir nechta ilmiy yondashuvlar uyg‘un holda qo‘llandi, jumladan, fenomenologik tahlil metodi orqali raqamli makonda shaxsning o‘zini anglash tajribasi, virtual identitetning ichki strukturali hamda kiberagressiv xatti-harakatlarning subyektiv mazmuni o‘rganildi; hermenevtik yondashuv yordamida voyaga yetmaganlarning virtual maydonda shakllanayotgan ma’naviy-madaniy kodlari, raqamli diskurslar va agressiv kommunikatsiya shakllarining ma’no qatlamlari talqin etildi; sotsiologik-komparativ metod asosida raqamli identifikatsiya jarayonlari turli madaniy kontekstlarda qanday kechishi va ular kiberagressiya ko‘rsatkichlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi solishtirildi; struktural-funksional tahlil orqali kiberagressiyani vujudga keltiruvchi raqamli kommunikatsiya tizimlarining ichki ijtimoiy mexanizmlari, algoritmik boshqaruv, anonimlik, tezkor aks-sado va virtual ierarxiya kabi omillarning o‘zaro ta’siri yoritildi; shuningdek, kritikal-diskursiv tahlil usuli yordamida raqamli makonda voyaga yetmaganlarning nutq amaliyotida shakllanayotgan agressiv diskursning ideologik manbalari, normativ-me’yoriy deformatsiyalar va raqamli kapitalning tilga ko‘chirilgan shakllari tahlil qilindi; nihoyat, tizimli yondashuv orqali raqamli identifikatsiya inqirozi va kiberagressiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik makro (jamiyat), mezo (ijtimoiy guruh) va mikro (individual psixologik) darajalarda bir-biri bilan mushtarak tarzda ko‘rib chiqildi — bu esa hodisaning falsafiy, psixologik va sotsiologik qirralarini yaxlit, mukammal va kompleks tarzda ochib berish imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli identifikatsiya inqirozi voyaga yetmaganlarning virtual makonda o‘zini anglash jarayonini beqarorlashtiruvchi asosiy

omillardan biri sifatida kiberagressiyaning kuchayishiga bevosita ta'sir qiluvchi ma'naviy-psixologik va ijtimoiy-diskursiv mexanizmlarni shakllantirib, anonimlikning ontologik tabiati, algoritmik boshqaruv tizimlari, "virtual tasdiqlash iqtisodiyoti", simulyativ ijtimoiylashuv jarayonlari hamda fragmentatsiyalashgan identitet modellari birgalikda voyaga yetmaganlar ongida real "men" va virtual "men" o'rtasidagi nomutanosiblikni kuchaytirishi, bu esa ichki kognitiv dissonans va ijtimoiy-rol ziddiyatlari orqali agressiv kommunikatsiya shakllarining, xususan kiberagressiyaning normativlashuviga olib kelishi, shu bilan birga kiberagressiv diskursning ijtimoiy-madaniy ildizlari virtual muloqotning tezkorlik, takrorlanuvchanlik va jazodan xoli bo'lish xususiyatlari fonida kuchayib, ijtimoiy-psixologik muvozanatning izdan chiqishiga xizmat qilishi ilmiy asosda aniqlandi.

Raqamli identifikatsiya inqirozi va voyaga yetmaganlar o'rtasidagi kiberagressiya masalasi bo'yicha akademik maydonda Sherri Turkle va S. Hinduja o'rtasidagi konseptual bahs, ayniqsa, fenomenning falsafiy-ontologik va psixologik-pragmatik talqinlari o'rtasidagi tafovutlarni ochib berishi bilan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Turkle o'z pozitsiyasida raqamli makonning shaxs ongiga ko'rsatadigan chuqur transformatsion ta'sirlarini birlamchi omil sifatida qo'yib, identifikatsiya inqirozini texnologik vositalar bilan haddan tashqari to'yingan jamiyatning "ontologik disbalansi" sifatida baholaydi; uning fikricha, voyaga yetmaganlarning virtual maydonda o'zini ifoda etishga intilishi, aslida, real hayotdagi muloqotning qisqarishi, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning rivojlanmay qolishi va natijada agressiv diskurslarga moyillikning kuchayishi bilan uzviy bog'liq. Turkle shaxsning "ko'p qavatli virtual men" konstruksiyasini tasvirlar ekan, bunday modelning tabiiylikdan uzoqlashganligi, o'zaro muloqot va empatiya mexanizmlarining susayishi, identitetning bo'linishi va o'z-o'zini tasdiqlashning imitatsion shakllariga tayanishi voyaga yetmaganlar ongini beqarorlashtirib, kiberagressiyaning ildizini aynan shu ichki nomutanosiblikdan olishini ta'kidlaydi. Bunga qarshi ravishda, S. Hinduja o'z tadqiqotlarida masalani ko'proq empirik, ijtimoiy-psixologik va strukturaviy yondashuvlardan kelib chiqib tahlil qiladi.

Muxokama. Raqamli identifikatsiya inqirozining voyaga yetmaganlar kiberagressiyasi bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini sharhlash jarayonida ikki taniqli xorijiy tadqiqotchining – amerikalik raqamli psixologiya nazariyotchisi A. Whitmore hamda yevropalik kommunikativ antropolog L. Krämerning fikriy qarama-qarshiligi ayniqsa diqqatga sazovordir. Whitmore o'z konseptual yondashuvda shuni ta'kidlaydiki, zamonaviy voyaga yetmaganlar duch kelayotgan identifikatsiya inqirozining ildizi raqamli platformalar tomonidan yaratilgan simulyativ o'zlik modellari borib taqaladi; ya'ni algoritmik muhit shaxsning haqiqiy psixologik o'sish bosqichlarini "shaxsiy brend yaratish" jarayoniga almashtirib, o'zlikning

konstruktsiyalashgan varianti bilan real psixik rivojlanish o'rtasida ontologik bo'shliq yaratadi[9]. Uning fikricha, aynan mana shu bo'shliq voyaga yetmaganlarning ijtimoiy o'zaro ta'sirini izdan chiqarib, ularni turli kompensator xatti-harakatlar, jumladan kiberagressiya orqali psixologik muvozanatni tiklashga urinuvchi subyektlarga aylantiradi. Krämer ushbu yondashuvni qisman rad etadi: u kiberagressiyani faqat psixologik izlanishlar bilan cheklab talqin qilishni yetarli deb bilmay, masalani ijtimoiy-semantik strukturalar, ya'ni tarmoq muloqotining madaniy kodyifikatsiyasi orqali tushuntirish zarurligini ilgari suradi[10]. Unga ko'ra, virtual makonda agressiv nutq faqat individuallashgan psixologik bosimning natijasi emas, balki kommunikativ maydonning o'zida allaqachon mavjud bo'lgan "ziddiyatli diskurslar iqtisodiyoti" bilan bog'liq mexanizmdir; bu mexanizm ijtimoiy guruhlarining o'zini tasdiqlash strategiyalarini keskinlashtirib, voyaga yetmaganlarni lingvistik kuch namoyishiga undaydi.

Xulosa. Raqamli identifikatsiya inqirozi va voyaga yetmaganlar o'rtasidagi kiberagressiya fenomenining ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy axborot makoni nafaqat kommunikatsiya vositasi sifatida, balki shaxs ongining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan murakkab madaniy-psixologik tizim sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov K. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olish borasida amalga oshirilgan tadbirlar //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 69-72.
2. Kadirovna A. S. Voyaga yetmaganlar o'rtasida suisid holatlarini oldini olish //Tadqiqotlar. – 2025. – Т. 60. – №. 1. – С. 253-263.
3. Антипина С. С. Опросник "Типология киберагрессии": структура и первичные психометрические характеристики //СибСкрипт. – 2021. – Т. 23. – №. 1 (85). – С. 113-122.
4. Turg'unbaev B. B. Voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha organ va muassasalar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy xujjatlarning ahamiyati //yangi o'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Т. 2. – №. 3. – С. 161-166.
5. Солдатова Г. У., Рассказова Е. И., Чигарькова С. В. Флейминг как вид киберагрессии: ролевая структура и особенности цифровой социальности //Психологический журнал. – 2021. – Т. 42. – №. 3. – С. 87-96.
6. Ashirboyev A., Jabborov O. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik va psixologik jihatlarini //Наука и инновация. – 2025. – Т. 3. – №. 24. – С. 112-119.
7. Антипина С. С. Социальный интеллект и проявление киберагрессии у подростков //Психология человека в образовании. – 2022. – Т. 4. – №. 2. – С. 133-144.

8. Soldatova G. U., Rasskazova E. I., Chigar'kova S. V. Kiberagressiya i cifrovaya kul'tura: predstavleniya podrostkov, molodezhi i roditelej. – 2023.
9. Солдато́ва Г. У. и др. Виды киберагрессии: опыт подростков и молодежи //Национальный психологический журнал. – 2020. – №. 2 (38). – С. 3-20.
10. Блинова Д. Н., Гурина О. Д. Киберагрессия и кибербуллинг в судебно-экспертной практике //Психология и право. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 150-160.